

MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
Instituti maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Yusupova Afruza Hasan qizi.
Akmalova Laylo Turob qizi.*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Mustaqillik yillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, iqtisodiy rivojlanishi, ma'naviy-madaniy hayati batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-siyosiy, ekologik ahvol, iqtisodiy hayot, suveren.

Kirish. Ilm taraqqiy etishi uchun sarflangan investitsiyalar ortig'i bilan qoplanishiga shubha yo'q.

SH.M.Mirziyoyev.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida, Amudaryoning quyi qismi, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika janubi-g'arb tomondan Qoraqum sahrosiga tutashgan. Uning shimoli-g'arbida Ustyurt pasttekisligi, shimoli-sharqiy tomonida esa Qizilqum sahrosi yastanib yotibdi. Orol dengizining janubiy hududi qoraqalpoq zaminida joylashgan. Qoraqalpog'iston umumiy er maydoni 166,6 ming kvadrat kilometr dan iborat bo'lib, u hududining kattaligi jihatdan O'zbekiston Respublikasi viloyatlari o'rtasida birinchi o'rinda turadi. Respublikaning aholisi 1 881,9 ming kishidan ziyoddir.

Respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilmasi 16 ta tuman va 1 ta shahardan iborat: Amudaryo, Beruniy, Bozatov, Ellikqal'a, To'rtko'l, Kegeyli, CHimboy, Qora'zak, Taxtako'pir, Qonliko'l, SHo'manoy, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Xo'jayli, Taxiato'sh, Nukus, tumanlari, poytaxi-Nukus, shahridir. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi parlament boshqaruv shakliga ega bo'lgan suveren Respublikadir. Qoraqalpog'iston o'z Konstitutsiyasi, bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. Qoraqalpog'istonning Konstitutsiyasi va qonunlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va ular shu asosda amal qiladi. Respublikada umumiy rahbarlik Jo'qorg'i Kenges Raisi – Qoraqalpog'iston Respublikasi parlamenti tomonidan amalga oshiriladi. Respublikaning oliy ijroiya hokimiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tasdiqlangan Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Respublika Vazirlar Kengashi tarkibiga Kengash Raisi, Raisning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari

raisleri, yirik konsern va birlashmalar rahbarlari kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, o‘z vazifasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahrida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining doimiy vakolatxonasi faoliyat yuritadi. 1990 yili 14 dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining IV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qorakalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risidagi” Deklaratsiya qabul qildi. Mazkur Deklaratsiya 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunda o‘zining huquqiy asosini topib, 1-17-moddalarida Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirof etildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70-75 moddalar) o‘z aksini topdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XII sessiyasida (1993 yil 9 aprel) Qoraqalpog‘iston, Respublikasi, Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpoq milliy davlatchiligi o‘z taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo‘ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha atributlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Majlisining 1992 yil 14 dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida Qoraqalpog‘iston Davlat bayrog‘i, 1993 yil 9 aprelda bo‘lib o‘tgan XII sessiyasida Davlat gerbi, 1993 yil 4 dekabrda bo‘lib o‘tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi. Parlament - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorgi Kengesi hisoblanadi. 86 deputatdan iborat. Quydagi davlat arboblari Parlament raislari bo‘lib ishladi: Dauletbay SHamshetov (1991-1992), Ubbiniyaz Ashirbekov (1992-1997), Timur Kamalov (1997-2002). 2002 yili 2 may kuni bu lavozimga Musa Tajetdinovich Erniyazov saylandi. Mustaqillik yillarida boshqa mintaqalarimiz qatori Qoraqalpog‘istonning rivojlanishiga ham ulkan e‘tibor qaratildi. Aynan ana shunday e‘tibor tufayli bugungi kunda respublika poytaxti – Nukus shahridan boshlab, tumanlar va qishloqlar, hatto, eng chekka ovullar ham har tomonlama o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston markaziy byudjetidan Qoraqalpog‘istonga berilayotgan subvensiya, ya‘ni moliyaviy yordam mikdori butun Qoraqalpog‘iston byudjeti harajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda. O‘zbekiston xukumatining amaliy yordami qoraqalpoq xalqining fidoiy mexnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonda aholi [turmush sharoitini yaxshilash](#), tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjixatlik bilan yurt istiqboli yo‘lida mehnat qilishga sharoit yaratildi. Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bula boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorning hissasi oshib bordi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va savdoda nodavlat sektori

hissasi 80-90 foizni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo‘nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bank tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu erda davlat banklar bilan birga tijorat va xususiy banklari xam faoliyat ko‘rsatmoqda. 1999 yilning birinchi yanvarigacha bo‘lgan ma‘lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larning umumiy hajmi 650 million so‘mni tashkil etdi. Uning 20 foizi respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. SHu bilan birga Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo‘mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so‘m kredit ajratdi. 2000 yilga kelib 2932 korxonalar xususiylashtirildi. Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 2000 yilga kelib respublika fond birjalari filiallarida 958 million so‘mlik aksiyalar sotildi. Respublikada 7807 kichik va o‘rta ishbiarmon korxonalar, 8977 yakka tartibdagi tadbirkorlar ro‘yxatga olindi. 1996 yil yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 10 mlrd 355,7 mln so‘mni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o‘tdi. Respublikada 1996 yilda amaldagi narxlarda 10 mlrd 754,4 mln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chikarildi. Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste‘mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko‘paydi. Yig‘ma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o‘simlik yog‘i, uzum vinosi, salqin ichimliklar, osh tuzi ishlab chiqarish o‘tdi. Sanoatda bir qator ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995 yilda Xo‘jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. 1996 yilda Qo‘ng‘irotida “Urga” gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini gaz bilan ta‘minlash darajasi 83 foizga etdi. “Qoraqalpog‘iston aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv.m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi mramor sexi ochildi. “Nukusun” zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sexi qurildi. Engil sanoat ishlab chiqarishning bazasi kengaya bordi. 1993 yili Nukusda “Kateks” to‘qimachilik majmuasi, 1995 yili Ellikqal’a tumanida “Elteks” to‘qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi. Nukus va Qo‘ng‘irot un kombinatlari, To‘rtko‘lda 3 mln shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal’a tumanida esa shunday quvvatga ega konserva sexi foydalanishga topshirildi. 1995 yilda Qo‘ng‘irot tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yul bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko‘zda tutilgan. Qo‘ng‘irot-Beyneu avtomobil trassasi, Navoi-

Uchquduk-Nukus temir yo‘li kurildi. Qoraqalpog‘istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat kiladi. Agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga o‘tish ro‘y berdi.

1997 yil 1 yanvar holatiga respublikada 263 qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Nodavlat sektorning jami ishlab chikarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi. Paxta etishtirishda nodavlat korxonalarining hissasi 97,8 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 95,1 foizni, bog‘dorchilikda 98,5 foizni, pillachilikda 100 foizni, go‘sht etishtirishda 98,9 foizni, sut va tухum ishlab chiqarishda 99,4 foizni, qorako‘l teri va jun etishtirishda 100 foizni tashkil etdi. Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o‘zgardi. G‘alla maydonlari ekin maydonlarining 35,8 foizini tashkil etdi. Bug‘doy va kartoshka etishtirish 3 marta, uzum etishtirish 4 martaga ko‘paydi. Qoraqalpog‘istonda dehqon fermer xo‘jaliklari tashkil etish bo‘yicha etarli tajriba to‘plandi. 1998 yilga kelib 1686 fermer shirkatlar uyushmalari tashkil etildi. Ellikqal‘a tumanida mavjud 14 ta jamoa xo‘jaliklari dehqon-fermer xo‘jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan erlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Lekin Qoraqalpog‘istonda ana shu tajribani ommalashtirishga mutlako e‘tibor berilmadi. 1992 yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashki iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992-2000 yillarda Jahon banki, Evropa rivojlantirish banki va boshqa firmalar bilan 100 dan ortiq shartnomalar tuzildi.

Respublikada 303 dan ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmokda. Qoraqalpog‘iston Respublikasining tashki savdodagi [asosiy sheriklari Rossiya](#), AQSH, Janubiy Koreya, SHveysariya, Niderlandiya xisoblanadi. Asosan paxta tolasi, toladan olinga mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari, buyan tomirlari sotiladi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 1996 yilda 122,9 mln dollarga teng bo‘ldi. G‘arb mamlakatlariga eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi. Tashki savdo oborotida importning salmogi 1996 yilda 46,2 foizni tashkil kildi. Import mahsulotlari tarkibiga asosan xalq iste‘mol mollari, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. YAqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug‘doy, mashina va jihozlar, agregatlar va ularning ehtiyot qismlari, kuvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar keltirildi. Lekin respublikaning imkoniyatlaridan to‘la foydalanilmayapti. Masalan, 1999 yili respublika xududida 70 ga yaqin foydali qazilma konlari aniqlandi.

Mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e‘tibor kuchaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi punktlarini elektrlashtirish to‘la hal qilindi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 59,5 foizga etdi. 1992-1996 yillarda Tuyamo‘yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 km vodoprovod tarmog‘i olib kelindi. 4057,5 km gaz tarmoqlari etkizildi va

tabiiy gaz bilan ta'minlash 85,4 foizni, shu jumladan shaharda 99,4 foizni, qishloqda 72,4 foizni tashkil etdi. Ko'plab sog'liqni saqlash ob'ektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug'ruqxonalar va turar-joy binolari qurildi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq xukumatimizning fermer xo'jaliklarini tashkillashtirishga e'tibor qaratgani tufayli boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligi sohasida ko'plab ijobiy yutuqlarga erishildi. Qishloq xo'jaligi erlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omil va asosi bo'ldi. Ushbu fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishdagi ulushi 99,5 foizni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi su'bektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan 4 yilda bir marotaba amalga oshirilishi, yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilishi mumkin emasligi belgilab berildi. Bundan tashqari, fermer xo'jaliklariga soliq va boshqa imtiyozlarni berish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bunda paxta xom-ashyosini yig'ib olish bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishchilarini daromad solig'idan ozod etilishi; -tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilgan yuridik shaxslar tegishli er uchastkasiga nisbatan 5 yil muddatga yagona er solig'ini to'lashdan ozod etilishi; -fermer xo'jaliklari manfaatlarini ko'zlab da'vo [arizalarini taqdim etish](#), sudga davlat boji to'lamasdan shikoyat qilish huquqi berildi.

Bugungi kunda Respublikada 5430 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan paxta-g'allachilikda 3682 ta fermer, sabzavot va polizchilikda 321 ta fermer, chorvachilikda 377 ta fermer, bog' va uzumchilikda 514 ta fermer, g'alla va sabzavotchilikda 326 ta fermer va 210 ta fermer xo'jaliklari boshqa yo'nalishlarda ish bilan band. 2016 yil Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha manzilli Dasturi qabul qilindi. Dasturga asosan Respublika bo'yicha jami 748 ta fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga aylantirish nazarda tutilib, amalda joriy yilning iyul oyiga qadar tashkil etilgan ko'p sohali fermer xo'jaliklari soni 433 ta hamda ko'p sohali faoliyat uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar soni 429 ta fermer xo'jaliklariga 248 gektar er maydoniga 2535,0 mln so'm amalda ajratildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi mutaxassislari va Adliya vazirligi xodimlari ta'kidlaganidek, barcha kategoriyadagi xo'jaliklarida 11 ming 111 gektarga sabzavot, 9508 gektarga poliz, 5325 gektarga kartoshka ekilib, to'liq navlar olindi. Bundan tashqari, 247 gektar maydonda yangi intensiv bog'lar, 247 gektarda tokzorlar yaratildi. Ushbu maydonlarga 123,5 ming dona meva, 296,4 ming dona tokzor navlari ekildi. SHu bilan birga 118 gektar maydondagi eski bog'da, 65 gektar tokzorlarning rekonstruksiya ishlari olib

borildi. Bugungi kunga qadar 6778 gektar bog‘ning, 1268 gektar tokning qator oralariga sabzavot ekinlari ekilib, oziqlantirish ishlari olib borilmoqda. Fermer xo‘jaliklari ishlarining samaradorligini oshirish va ularga shart-sharoitlar yaratish, ekin maydonlardan maqsadli foydalanish bo‘yicha barcha tumanlarda er maydonlarini optimallashtirish ishlari olib borilib, to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazildi. SHuning natijasida meva-sabzavot etishtirishda 321 ta fermer xo‘jaligiga 1467 gektar, bog‘dorchilik va tokzorchilikka ixtisoslashgan 514 ta fermer xo‘jaligiga 1510 gektar, bundan tashqari sabzavot-g‘alla etishtirish bo‘yicha yangidan tashkil etilgan 326 ta fermer xo‘jaliklariga 4532 gektar er maydonlari ajratilib berildi. Bugungi kunda meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirishuvchi, tayyorlovchi va eksport etuvchi korxonalar bilan “O‘zagroeksport” ixtisoslashgan tashqi savdo kompaniyasi o‘rtasida shartnomalar tuzish ishlari to‘liq tamomlandi. Rossiya Federatsiya va Qozog‘iston Respublikasiga meva-sabzavot mahsulotlar eksport etish bo‘yicha shartnomalar tuzildi.

Bugungi fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan chegaralanib qolmasdan, uni qayta ishlashni ham yo‘lga qo‘ymoqda. Natijada qishloq joylariga sanoatni olib kirishga, aholi bandligini ta‘minlashga, eng muhimi, ichki iste‘mol bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, keyingi ikki yarim yil ichida Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barcha yo‘nalishlarini belgilaydigan Farmon va Qarorlari, ularning faol ijrosi xalqimizning turmush tarzini butunlay o‘zgartib yubordi. Avvalombor, inson va uning manfaatlarini ko‘zlab olib borilayotgan islohatlarning natijasi yurtimizdagi har bir fuqaroning baxtli va obodon turmushi, o‘ziga va yurt kelajagiga bo‘lgan mustahkam ishonchida ko‘rinmoqda. Barcha eski uylar o‘rniga yangi, milliy loyihalar asosida qurilayotgan ko‘rkam binolar, so‘lim va go‘zal xiyobonlar, hatto, qishloqlarimizning, mahallalarimizning alohida “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari asosida yangi qiyofa kasb etayotganligi Prezidentimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar samarasidir. Bugungi kunda Qoraqalpog‘istonda o‘tgan qisqa vaqt mobaynida bir qator yirik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki butun mamlakatimizning faxri bo‘lgan, dunyoda “Sahrodagi Luvr” deb shuhrat qozongan I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san‘at muzeyining muhtasham ikkinchi korpusi qurilib, yuksak xalqaro standartlar asosida jihozlandi va foydalanishga topshirildi. Qoraqalpoq davlat O‘lkashunoslik muzeyi binosi, O‘zbekiston Qahramoni Ibroyim YUsupov nomidagi iqtidorli bolalar maktab-internati, Amir Temur nomidagi istirohat bog‘i, zamonaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan yirik sport majmuasi bunyod etildi. Imom Eshon Muhammad jom‘e masjidi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

SHuningdek, Nukus shahrida – “Nukus polimer” MCHJ, “Nukuselektroapparat” MCHJ faoliyat olib bormoqda. “Samsung” brendi ostida televizor, changyutkich ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Mo‘ynoq tumani aholisini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha 101 kilometrlik “Qo‘ng‘irot-Mo‘ynoq” suv quvuri va “Qo‘ng‘irot” suv taqsimlash inshooti qurib bitkazildi. Nukus shahri markazidan o‘tuvchi “Do‘stlik” kanalining ikki qirg‘og‘i obodonlashtirilib, bugungi kunda bu sohil atroflari xalqimizning eng sevimli oromgohiga aylangan. Qorao‘zak tumanidagi “Qoraqalpoq sement”, “Titan sement”, Taxiatoş tumanidagi metal-konstruksiya ishlab chiqarish zavodi, Ellikqal‘a tumanidagi “Bo‘ston mega-teksil”, To‘rtko‘l tumanidagi “Vegateks global”, CHimboy tumanidagi “Lanextrakt” korxonalarida ham ishlab chiqarish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Nukus shahrida “Nukus Med Tex” MCHJ, Kegeyli tumanida “Kegeyli qog‘oz” MCHJ, “Lanko-miya” korxonasi, Amudaryo tumanida “Amu SHoxjaxon” MCHJ, CHimboy tumanida “Pintok” korxonasi tomonidan tibbiyot kilinikasi ishga tushirildi. Mo‘ynoq tumanida Amfiteatr, “Mo‘ynoq porloq tekstil” tikuvchilik korxonasi, davlat xizmatlari markazi yangidan qurildi hamda futbol o‘yingohi va Madaniyat markazi rekonstruksiyasi to‘liq yakunlandi. SHuningdek, Nukus shahrida Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan “Imkon” nomli O‘zbekistondagi birinchi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasasi foydalanishga topshirildi. Bulardan tashqari, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida keng ko‘lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ma’naviy kadriyatlarni qayta tiklashda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bayramlarini tashkil etish muhim rol o‘ynadi: 21 mart Navro‘z, 1 yanvar - YAngi yil, 8 mart - Xotin-qizlar kuni, 9 aprel - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 9 may - Xotira kuni, 1 sentyabr – [Mustaqillik kuni](#), 1oktyabr - Ustozlar kuni, 8dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ro‘za haiti, Qurban haiti. Mustaqillik yillarida Nukus shahrining 60 va 70 yilligi, To‘rtko‘l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Kosiboy o‘g‘li va Berdax Kargabay o‘g‘lining 170 yilligi, Nukus pedagogik institutining 60 va 70 yilligi, Qoraqalpoq universitetining 25 yilligi, Allayor Do‘stnazarovning 100 yilligi, Ernazar Alakozning 200 yilligi, I.YUsupov va T.Kaipbergenovlarning 70 yilligi keng nishonlandi. Nukus pedagogik institutiga Ajiniyoz shoir nomi, Qoraqalpoq universitetiga Berdax nomi berildi. Berdax va Ajiniyoz, Ulugbek haykallari o‘rnatildi. Berdax muzeyi, Amet va Aimxon SHamuratovlar muzeyi tashkil etildi. 1994 yili Qoraqalpog‘istonda Ma’naviy madaniyat va ma’rifat markazi tashkil etildi. SHuningdek, “Oltin meros”, “Amir Temur”, “Nuraniy”, “Navruz” fondlari tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fidoyi farzandlari Allaniyoz Uteniyozov, Agitoy Adilov, Onesya Saitova, Tulepbergen Kaipbergenov, Ibroxim YUsupovlar “O‘zbekiston Qahramoni” unvonini oldilar. 1993 yili respublika Ministrlar Kengashi qoraqalpoq tilida yangi lotin

yo'zuviga o'tish haqida qaror qabul qildi. 1993 yili Nukusda turk-qoraqalpoq litseyi tashkil etildi. 1996 yili respublikada 743 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatdi. Hozir Qoraqalpog'istonda 6 gimnaziya, 13 litsey, 19 kolledj, 18 maktab-litsey, 6 bank-klass va biznes - maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikadagi 22 o'rta maxsus o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlarida 11,8 ming o'quvchi ta'lim olmoqda. 1990 yili Qoraqalpoq universiteti uchta fakulteti va ikkita bo'limi asosida Nukus davlat pedagogik instituti qayta tashkil etildi. 1991 yili universitetning tibbiyot fakulteti asosida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali tashkil etildi. Unda talabalar soni 2001 yili 1000 ga etdi. 1995 yili yanada universitetning qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot fakultetlari asosida Toshkent agrar universiteti Nukus filiali, Toshkent arxitektura-qurilish instituti Nukus filiallari tashkil etildi. 2005 yili Toshkent informatsion texnologiyalar universiteti Nukus filiali tashkil etildi. Beshta oliy o'quv yurtlarida 9 ming nafar talaba o'qimokda. 1991 yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali bo'lim statusiga ega bo'ldi. Bo'lim tarkibida Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Bioekologiya, Orol bo'yi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti tashkil etilib, mustaqillikdan avvalo uchta institut bo'lsa, endi 6 ta institut tashkil etildi. Bo'limni akademik S.Kamalovdan keyin akademiklar CH.Abdirrov, T.Eshonovlar boshqardilar. SHuningdek, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy markazi Qoraqalpog'iston bo'limi tashkil etilib, tarkibiga SHamurat Musaev nomidagi CHimboy dehqonchilik instituti, "SHoli" [uyushmasi](#), Oltinkul stansiyasi, molchilik, bog'chilik, uzumchilik muassalari kirdi. Qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot sohalari bo'yicha J.Mambetullaev va B.Mambetnazarov kabi akademiklarimiz mavjud.

Bugungi kuni Qoraqalpog'istonda 65 fan doktori, 600 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko'rsatmoqda, shu jumladan 60 foiz fan doktori va 40 foiz fan nomzodlari mustaqillik davrida ilmiy unvonga ega bo'ldi. Ilgari O'zbekiston Fanlar akademiyasi xaqiqiy a'zoligiga saylangan S.Kamalov (1979), CH.Abdirrovlar (1989) qatoriga 1994-2000 yillari J.Bazarbaev, A.Baxiev, T.Eshonov, A.Dauletov, X.Xamidov ham qabul qilindilar. 1997 yili esa ikki nafar rassom J.Izentaev va J.Kuttymuratov O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandi. Tilshunos olimlar M.Kalenderov, R.Esemuratova, A.Turabaev, K.Dauletbayevlar, faylasuf Polat Seitov O'zbekiston Respublikasi Beruni nomidagi davlat mukofotini oldilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdax nomidagi davlat mukofotini A.Baxiev, R.Reimov, L.Konstantinova, J.Bazarbaev, K.Dauletova, M.Ametov, J.Saparniyazov, T.Eshonov, M.Ajibekov, S.Kamalov, K.Allambergenovlar oldilar. Ginekolog Oral Ataniyazova xalqaro "Goldman" nomidagi ekologik mukofot egasi bo'ldi. Qoraqalpoq davlat universiteti yonida Qoraqalpoq tili va adabiyoti bo'yicha doktorlik va nomzodlik, UzFA Qoraqalpog'iston bo'limi tarix, arxeologiya va etnografiya instituti yonida tarix bo'yicha nomzodlik

dissertatsiyalarni himoya qiluvchi ixtisoslashgan kengashlar tashkil etilib fan doktorlari va nomzodlari o‘zimizda himoya qiladigan bo‘ldi. Tarix fanidan hozirgacha 51 fan nomzodi himoya qildilar. Respublika olimlari mustaqillik yillarida chet el mutaxassislari bilan xamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bioekologiya instituti olimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993 yildan beri Orolbuyi ekologiyasi muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. 1995 yili Muynokda Germaniya yordamida bioekologiya institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari va fransuz arxeologlari bilan birgalikda ekspeditsiyalar tashkil etmokda. Tarixchilarimiz Qoraqalpog‘iston xududida turizmni targ‘ibot qilish maqsadida “Oltin marshrut”-ni ishlab chiqib, unga Mizdaxkon, Ellikal’a yodgorliklarini kirgizdilar. 1997 yili sentyabrda Nukusda “Qirk-qiz” dostoni va turkiy folklorni tadqiq etish muammolariga bagishlangan xalkaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi. Mustaqil O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o‘rin egallaydi. O‘zbekiston qahramonlari, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalk shoiri Ibroxim YUusupov, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalqyozuvchisi Tulepbergan Kaipbergenovlarq katoriga Tolybay Kabulov, Xalmurat Saparov, Gulaysha Esemuratova, Kengesbay Raxmonov, Uzakbay Abduraxmanov, Murotbay Nizonov, Kengesbay Reimov, Saginbay Ibroximov, Kengesbay Karimov, Xalila Dauletnazarov, Jiyanbay Izbaskanov, Baktiyar Genjemuratov, SHarapatdin Ayapov, [Gulistan Matyakupova](#), Nabiyra Toreshova, Munayxan Jumanazarova, Gulnara Nurlepesova, Abdimurat Atajanov, Xurliman Utemuratova, SHarigul Payzullaeva, Saylaubay Jumagulov, Bazarbay Kazakbaev va boshkalar kelib qo‘shildi. 1993 yili yanvarda Toshkentda Qoraqalpog‘iston madaniyati kunlari, noyabrda esa Qoraqalpog‘istonda Toshkent madaniyati kunlari utkazildi. 1993 yili Toshkent konservatoriyasida milliy “Ajiniyoz” operasi ijro etildi. 1996 yili Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta “Oyjamol” nomli balet saxnalashtirildi. Kompozitorlardan N.Muxammaddinov, K.Zaretdinov, G.Amaniyazov, SH.Paxratdinov, T.Esirkepov va boshkalar Mustaqillik yillari yaxshi faoliyat kursatmokda. Muyassar Razzakova, Kegesbay Serjanov, Myrzagul Sapaeva, Gulxatiysha Aimbetova, Roza Kutekeeva, Makset Xujaniyozov, Makset Utemuratov, Gulnara Utepova, Eleonora Kutlypulatova, Anifa Artukova, Gulnara Allamberganova va boshka qo‘shikchilarimiz butun O‘zbekiston va Markaziy Osiyoga taniqli bo‘ldi. Jumabay jirov Bazarov, Baktiyar jirov Esemuratov, [baxshilar Turganbay Kurbanov](#), Ziyada SHaripova, Zulfiya Arzymbetova, Jarlykagan Eshanov, Tenel Kalliev va boshkalar Germaniya, Fransiya va boshka davlatlarda Qoraqalpoq dastanlari va she‘rlarini ijro etib, butun dunyoga belgili bo‘ldi. Qoraqalpoq universiteti “Xurliman” ansambli 2000 yili Toshkentda “O‘zbekiston - Vatanim manim” konkursida 1-o‘rinni egalladi.

Mustaqillik yillari Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq milliy san'at muzeyi va Qoraqalpoq o'lkashunoslik muzeyi, Berdax muzeyi milliy o'zligimizni targ'ibot qilishda katta faoliyat ko'rsatmoqda. 2002 yili may oyidan boshlab milliy televideniye "Assalam Qoraqalpog'iston" tongi ko'rsatuvi tashkil etildi. SHuningdek, "Maurit", "Tarix va takdir", "Bayterek", "SHanarak", YOshlar kanali" ko'rsatuvlari tashkil etildi. Prezidentimiz Erkin Kutubbaev, Alisher Auevbaev, Baxtiyar Nurullaev, Muratbay Baltaniyazov, F.Orazymbetov va boshqalarning sport sohasidagi mardliklarini tan oldi. Mustaqillikning o'tgan davri - tarix uchun bir lahzadir. Lekin shu muddatda Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan ishlar salmog'i va ko'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng keladi. Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz hayotida xam, odamlar turmushida xam keskin burilish yasaldi. Tafakkurimiz tobora kengaydi. zligimizni anglay boshladik.

Ekologik muammolar. Transchegaraviy daryolar. 1990-yillardan boshlab Orol fojiasining halokatini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilot minbarlaridan jahon hamjamiyatining diqqat e'tiborini ushbu muammoga, uni mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda. Orol fojiasi va uni bartaraf etish choralarini qidirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida va 1995-yil oktabrdagi 50-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatini Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik halokat bo'lgan Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdi. Mazkur global muammoni BMT shafeligida xalqaro moliyaviy tuzilmalar, rivojlangan davlatlar ko'magisiz amalga oshirish mumkin emasligiga BMTning e'tiborini qaratdi. 1993-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ta'sisligida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) tashkil etildi. 2010-yil «O'rta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash» mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Islom Karimov transchegaraviy daryolar va ulardan foydalanishda adolat tamoyiliga rioya etish zarurligi, aks holda mintaqaning eko olamiga ulkan fojialarni keltirishi mumkinligi haqida yana bir bor ommaga ma'lum qildi. 2013-yilda Orolbo'yi uchun Amudaryo deltasidagi kichik suv havzalarini tashkil etish, sho'rsizlantiradigan qurilmaga ega suv chiqarish inshootlarini qurish, himoya o'rmonini tashkil etish kabi loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishga mablag'lar ajratish rejasi tasdiqlangan. 2013-yilda O'zbekiston Respublikasi va OQXJ-ning o'sha paytdagi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida «Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari Dasturi» ilgari surildi. Global miqyosda va mintaqamizda ekologik vaziyatning tobora yomonlashuvi va chuchuk suv taqchilligi sharoitida Markaziy

Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, Markaziy Osiyoning ikki asosiy transchegaraviy daryolari – Amudaryo va Sirdaryo tarixan mintaqa xalqlarining umumiy boyligi va hayot manbayi bo'lib kelgan. Aynan ushbu daryolarning quyilishi hisobiga Orol dengizi havzasi suv bilan ta'minlagan. [Shularni hisobga olgan holda](#), O'zbekiston Respublikasi Tojikiston va Qig'iziston Respublikalari tomonidan jahon miqyosida yirik andozadagi to'g'onlar, Amudaryo yuqori qismida balandligi 350 metrni tashkil etadigan Rog'un va Sirdaryo yuqori qismida Qambarota GESlarini qurish bo'yicha olib borayotgan harakatlariga befarq qarab tura olmadi. O'zbekiston Amudaryo va Sirdaryoning tabiiy oqimiga, atrof-muhitga hayvonot va o'simlik dunyosiga qanday ta'sir etishi mumkinligini aniqlash maqsadida BMT shafeligida xolis xalqaro tekshiruvdan o'tkazilishi kerak, deb hisobladi. Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar transchegaraviy daryolarni boshqarish sohasidagi hamkorlikning yo'qligi tufayli hamon murakkab bo'lib qolmoqda. O'zbekiston I. Karimov davrida Rog'un GESning qurilishiga qat'iy qarshi chiqqan. Mamlakat ushbu GESning qurilishi bilan daryolar suvi kamayib ketishini ma'lum qilgan, shuningdek, GES to'g'oni buziladigan bo'lsa, ekologik falokat xavfi bilan ogohlantirgan. Sh. Mirziyoyev prezident lavozimiga kirishgach, O'zbekistonning Rog'unga nisbatan pozitsiyasi biroz o'zgardi. 2017-yilning yozida O'zbekiston Rog'un GES qurilishiga qarshi emasligi, faqat bu jarayonda O'zbekiston milliy manfaatlari ham hisobga olinishi lozimligini ma'lum qildi. Bugun Qoraqalpog'istonda hayot butunlay o'zgarimoqda. Barcha shahar va tumanlar, qishloqlar, mahallalar yangicha qiyofa kasb etmoqda. Zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport va ijtimoiy sohaning boshqa ob'ektlari, kommunikatsiya tarmoqlari qurilmoqda. Bu esa, Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rnining tobora oshib borayotganligidan darak beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda Qoraqalpog'iston Respublikasi – O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Respublika bo'lib, tarixan olib qaraganda, o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining azaliy do'stlik aloqalari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qoraqalpog'iston 1932-yilda avtonom viloyat sifatida tashkil etilgan, keyinchalik Qoraqalpog'iston avtonom respublikasiga aylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 2010..
2. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 2012.
3. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – [Samarqand](#), 2009.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 2007.
5. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2014.